

YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA HARBIY TA'LIM TIZIMINI ISLOH QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ISAKOV SANJAR XAZRATQULOVICH

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent*

“So‘nggi yillarda dunyoda yuz berayotgan qurolli mojarolarda uchuvchisiz uchadigan apparatlar, robotlashgan tizimlar, radioelektron kurash vositalari va zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Bu esa nafaqat qurol-yarog‘ va harbiy texnikalarni yangilash, balki yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashni ham taqozo etmoqda”
Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya: mazkur maqolada harbiy ta'lim tizimini isloh qilishning o'ziga xos xususiyatlari, asosiy yo'nalishlari va zamonaviy talablarga mos takomillashtirish masalalari, harbiy kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, kursantlarning kasbiy kompetensiyalari, jangovar tayyorgarligi hamda ta'lim tizimidagi islohotlarning asosiy maqsadi zamonaviy xavfsizlik talablariga javob beradigan, yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan va Vatanga sadoqatli harbiy mutaxassislarni tayyorlash haqida so'z yuritiladi.

Kalit suzlar: harbiy ta'lim, ta'lim tizimini isloh qilish, harbiy kadrlar tayyorlash, harbiy mutaxassis, kasbiy kompetensiya, jangovar tayyorgarlik, harbiy pedagogika, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari, innovatsion ta'lim, vatanparvarlik tarbiyasi.

Harbiy ta'lim jarayonini tashkil etish, samarali natijalarga erishish sohadagi bugungi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Prezidentiimiz Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyev, 2018-yil 13-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqida: “...Qo'shinlar istalgan daqiqada o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi kerak. Ular jangovar tayyorgarlikning yangi tizimi bo'yicha muntazam shug'ullanib borishi, barcha harbiy xizmatchilar haqiqiy professional kadr bo'lishi uchun o'z sohasini puxta egallashi shart...”, - deb ta'kidladi. Buning uchun esa harbiy ta'lim jarayonini zamonaviy talablardan kelib chiqib tashkillashtirish lozim. Darhaqiqat, ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagog salohiyati bilan bir qatorda mashg'ulot moddiy ta'minotining sifati ham muhim. Pedagoglar va kursantlarning mashg'ulotga tayyorgarligi, o'zlashtirishi,

bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirilishida zamon talabidan kelib chiqib tayyorlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv fanlarining turlari, mashg'ulot mavzulari, ta'lim oluvchilarning bilimlari darajasi va qizikishlarini inobatga olgan holda mashg'ulot o'tish vaqtida pedagogik texnologiyalarning yuqori samara beruvchi turlarini qo'llash o'quv jarayonini jadallashtirish, uning sifatini oshirishga yordam beradi.

Pedagogika o'zining butun taraqqiyoti davrida o'qitishning yanada mukammalroq va yanada samaraliroq tizimini izlash bilan rivojlanib boradi. Maktabda o'qitishning past sifati va ta'limning barcha bug'inlarida mutaxassislarning past darajadagi kasb tayyorgarligi muammosini hal etishga qodir bo'ladigan usullarni izlab topishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. Bu muammoning hal etilishi ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarning keng qo'llanilishi asosida ta'lim jarayonini jadallashtirishni taqozo etadi.

Harbiy didaktika harbiy xizmatchilar ta'limini murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida o'rganadi va bu jarayonning quyidagi asosiy funksiyalarini belgilaydi: ta'limiy (harbiy xizmatchilarning bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish); tarbiyaviy (harbiy xizmatchilarda o'z Vatanining qurolli himoyachisi uchun zarur shaxsiy sifatlarni tarbiyalash); rivojlantiruvchi (harbiy xizmatchi shaxsini komil inson sifatida rivojlantirish, yuzaga kelgan turli vazifalarni xal qilishga ijodiy yondashish malakalarini rivojlantirish) va ruhiy tayyorlash (harbiy xizmatchilarda xizmat vazifalarini bajarishga va jangovar vaziyatda muvaffaqiyatli xarakat qilishga ruhiy tayyorlikni shakllantirish).

Bo'lajak ofitserlarga ta'lim berish jarayonida kursantlar harbiy xizmat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun tegishli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Shu bilan bir vaqtda ularning tafakkuri rivojlanadi, irodasi va xarakteri chiniqadi, ma'naviy-axloqiy va jangovar sifatlari, xissiy-irodaviy turg'unligi, jangovar vaziyatlarda aniq va ishonchli harakat qilish uchun ruhiy tayyorgarligi shakllanadi.

Bunday vazifalarni amalga oshirish uchun harbiy ta'lim jarayonini tashkil etishda turlicha yondashuvlar mavjud. Ularni asosiylarini ko'rib chiqish lozim. Harbiy ta'limga davlat va jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablarda harbiy ta'lim sohalari bo'yicha o'zaro muvofiqlik va mutanosiblik to'la ta'minlanadi. Shu jihatdan harbiy ta'lim standartini belgilashda ta'lim jarayonining tarkibi, huddi shu tarkibiy qismlarning mazmunini modernizatsiyalash, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash imkoni hisobga olingan.

Pedagogika fani va ta'lim-tarbiya amaliyotida turli yondashuvlar qo'llaniladi. Yillar davomida qo'llanilib kelinayotgan an'anaviy yondashuv bilan bir qatorda hozirgi kunda ta'limga zamonaviy yondashuvga alohida e'tibor berilmoqda. Ta'limga tizimli, texnologik, tadqiqiy, funksional, kompleks, faoliyatli yondashuvlar zamonaviy yondashuvga misol bo'la oladi.

An'anaviy yondashuv. Uning asosiy xususiyati, o'qituvchi ma'lum axborotni gapirib beradi, tushuntiradi, ta'lim oluvchi kursantlar esa, bu bilimni xotirasida saqlaydi. "Bilim" tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma'nosida tushuniladi. Ta'lim oluvchida bilim bor-yo'qligi sinovlarda shu axborotga doir berilgan savolga yoddan bergan javobiga qarab aniqlanadi. Bunda bilim degani asosan esda qoldirishning natijasidir, u ko'pincha yuzaki bo'lishi xam mumkin. Bunday bilim xotirada uzoq saqlanmaydi. Ta'lim oluvchi savol berilganda eslashi, ba'zan eslay olmasligi ham mumkin.

An'anaviy ta'lim mamlakatimiz o'quv yurtlarida keng tarqalgan, uning turli jihatlari fanda ishlab chiqilgan, katta tajriba to'plangan. An'anaviy ta'lim usulini takomillashtirish sohasida izlanishlar davom etmoqda, lekin uning obyektiv imkoniyatlari cheklangan. Davlatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan fan -texnika talablari - ta'lim usuli bilan jamiyatning raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga, barkamol avlodni shakllantirishga bo'lgan extiyoji o'rtasida nomutanosiblikni vujudga keltirdi. Uni ta'limda boshqa yangi yondashuvlarni qo'llash yo'li bilan hal etish lozim.

Tizimli yondashuv. Tizimli yondashuv ilmiy bilish metodologiyasi va pedagogik amaliyotning bir yo'nalishi sifatida universal tavsifga ega bo'lib, pedagogikada keng qo'llaniladi. Ta'lim-tarbiyaga ham pedagogik tizim sifatida qarash lozim.

"Tizimli yondashuv" tushunchasi ko'pincha "tizimli metod", "tizimli tahlil usuli" tushunchalari bilan uzviy bog'liq holda qo'llaniladi. Bunday tizimli tahlil usullari ham obyektning yaxlit tizim sifatida o'rganishni nazarda tutadi. Tizimli yondashuv, ayniqsa, tuzilishi va bajariladigan vazifasiga ko'ra taxlilga juda yaqin. Tizimli taxlilning obyektini yaxlit narsa yoki xodisa hisoblanadi. U, birinchidan, obyektning turli qismlarini; ikkinchidan, qismlarning o'zaro bog'liqligini; uchinchidan, tizimning chegaralarini va to'rtinchidan, tizimning atrof-muhit bilan bog'likligi, aloqadorligini nazarda tutadi.

Texnologik yondashuv. Sanoat ishlab chiqarishi sohasida yuzlab texnologik loyihalar (jarayonlar) yaratilgan. Ular, agar texnik hujjat talablariga amal qilinsa, ishni kim va qaerda bajarganidan qat'iy nazar, maxsulot sifati va natijasi kafolatlanadi.

Ta'lim ishiga texnologik yondashuv esa:

o'qish-o'qitish jarayoni bilan o'zaro uzviy bog'liq bosqichlar;

ta'limda mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirishni ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;

loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini birdek bajarishni nazarda tutadi.

Bu yondashuv asosan, reproduktiv ta'limga xosdir. Reproductiv ta'lim tipik vaziyatlarda biror ish harakatni oldindan belgilab olingan qoidalar asosida bajarishdir.

Reproduktiv darajasi uchun pedagogik texnologiya usulida ta'lim takror ishlab chiqiladigan konveyerli jarayon sifatida tashkil etiladi, undan kutiladigan natija ham mufassal tasvirlanib, aniq qayd etiladi. O'quv materialini aniq ifodalangan o'quv

maqsadiga mos qayta tuzib, ishlab chiqiladi, ayrim bo'lak (qism, modul)larga ajratiladi, o'quv materialini o'rgatishning muqobil yo'llari nazarda tutiladi, har bir bo'lakni o'rganish natijasi nazorat etilib, xato va kamchiliklar tuzatilib, tug'rilab boriladi. Oq'uv ishi etalonda ko'rsatilgan natijaga erishishni nazarda tutadi. Bu ta'lim oluvchilarni qiziqtirish, musobaqa va o'zaro yordamlashishni inkor etmaydi. Ta'lim reproduktiv harakterda olib borilgani uchun ham bu usul bilim, ko'nikma va malakalarning zarur minimumini egallashda ko'proq samara beradi.

Tadqiqiy-ijodiy yondashuv. Bunday yondashuv ta'limning maqsadidan kelib chiqib ta'lim oluvchida biror muammoni yechish qobiliyatini rivojlantirish, yangi bilim (tajriba)ni mustaqil o'zlashtirish, harakatning yangi usullarini topish, shaxsan tashabbus ko'rsatishni ko'zda tutadi.

Tadqiqiy yondashuv faoliyatning ijodiy, aktiv harakteri bilan bog'liq. Bu yondashuvda ta'lim oluvchining o'quv-bilish faoliyatiga pedagog rag'batlantiruvchi usulda rahbarlik qiladi, uning shaxsiy tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi, u bilan hamkorlik qiladi, fikr va qizikishlarini oldingi o'ringa qo'yadi. Tadqiqiy yondashuv bo'yicha ham pedagogik texnologiya variantlari ishlab chiqilgan.

Ta'lim jarayonini takomillashtirish, bugungi kun talablariga javob beradigan darajaga yetkazish uchun nafaqat yondashuvni o'zgartirish, zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanib tinglovchi (kursant)larni faollashtirish muhim masala bo'lib turibdi.

T.G.Kirlanovning fikricha, didaktikada ta'lim metodlari tinglovchilarni faollashtirish darajasi yoki o'quv-bilish faoliyati harakteriga qarab quyidagicha tasniflanadi:

ma'lumot manbalari bo'yicha (verbal, ko'rgazmali, amaliy metodlar);

mantiq usullari bo'yicha (tahliliy-sintetik, induktiv, deduktiv metodlar);

o'qitish shakli bo'yicha (ko'rgazmali tushuntirish, muammoli-rivojlantiruvchi metodlar);

ta'lim oluvchilarning bilish mustaqilligi bo'yicha (reproduktiv, produktiv, evristik metodlar);

muammolilik darajasi bo'yicha (ko'rgazmali, monologik, dialogik, evristik, tadqiqiy, algoritmik, dasturlashtirilgan metodlar);

didaktik maqsadi va funksiyalari bo'yicha (rag'batlantirish, tashkiliy va nazorat metodlari);

o'qituvchining faoliyati bo'yicha (bayon qilish, mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish metodlari) va xokazo.

Faol ta'lim metodlari o'quv jarayonining turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

1-bosqich - bilimlarni birlamchi egallash. Bu muammoli ma'ruza, evristik suhbat, o'quv diskussiyasi v xk.

2-bosqich - bilimlarni nazorat qilish (mustaxkamlash), shuningdek, jamoaviy fikrlash faoliyati, test va xk.

3-bosqich - bilimlar va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'limning modellashtirilgan, o'yinli va o'yinsiz metodlari asosida kasbiy malakalar va ko'nikmalarni shakllantirish.

O'qitish metodlarining har qanday tasnifi o'qituvchi uchun aniq didaktik vazifalarning hal qilinishi darajasiga ko'ra maqsadga muvofiq tanlangandagina amaliy mazmun kasb etadi.

Bunday omillar oliy harbiy ta'lim muassasalarida harbiy mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan ta'lim jarayonining yangicha yondashuvi. Yangicha tafakkur, innovatsion pedagogik texnologiyalarning keng qo'llanilishi asosida ta'lim jarayonini jadallashtirishni taqozo etadi.

Hozirgi davr yoshlarining fikrlash qobiliyati bir necha o'n yillar oldingi tengdoshlariga qaraganda ancha yo'kori, zexni o'tkir, yuzaga kelgan vaziyatlarga tezrok moslashadi. Shu sababli ta'lim - tarbiya jarayoniga eskicha, an'anaviy yondashuv bugungi kunda o'zini oqlamaydi.

Hozirga kunda harbiy ta'lim muassasalariga qo'yiladigan eng muhim talab va ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy taraqqiyotning qat'iy sharti - keng dunyoqarashli, egiluvchan tafakkurga ega, nostandart fikr yurituvchi, tezkor qaror qabul qilishga qodir, harbiy-kasbiy kompetensiyalarni mustaxkam egallagan, ijodiy faoliyat yurita oladigan kreativ harbiy mutaxassisni shakllantirishdan iborat. Ijodiy faoliyat asosiy turlarining tahlili shuni ko'rsatmokdaki, uning muntazam ravishda amalga oshirilishi insonda o'zgaruvchan sharoitlarda o'zini yo'qotmaslik, muammoni aniq ko'ra olish va uning yangiligidan qo'rqmaslik, fikr yuritishning yangiligi va unumliligi, ixtirochilik, sezgirlik kabi sifatlar shakllanadi. Bunday sifatlarga hozir talab katta, keyinchalik esa extiyoj bundan ham oshib boradi. Shu maqsadda zamonaviy o'quv jarayonida ta'limning an'anaviy, ya'ni reproduktiv usulidan produktiv (mahsuldor), qidiruv-ijodiy usullariga o'tish muhim.

Produktiv ta'lim quyidagi afzalliklarga ega:

mantiqiy fikr yuritish muammolarni ilmiy, ijodiy yechishga o'rgatadi;

zarur bilimlarni mustaqil ijodiy qidirishga o'rgatadi;

uchragan qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadi;

o'quv materialini isbotliroq qiladi;

o'quv materiali o'zlashtirilishini chuqurroq va mustaxkamroq qiladi;

bilimlarning ishonchga aylanishiga ko'maklashadi;

o'qishga nisbatan ijobiy xislarni hosil qiladi;

bilishga qiziqishni shakllantiradi va rivojlantiradi;

ijodiy shaxsni shakllantiradi.

Oliy harbiy ta'limda xanuz tushuntirish-ko'rgazmali yondashish an'anaviydir va asosan o'qituvchi tomonidan ma'lumotlarni berish, tinglovchi (kursant) xotirasida olingan bilimlarni jamg'arish va mustaxkamlashdan iborat bo'lgan yondashuvni kuzatish mumkin. Bu ma'lumotlarning, bilimlarning mavjudligi esa (yakuniy nazorat va imtihonlar paytida) tinglovchi (kursant) ularni tiklay olishi, ya'ni bu bilimlarga murojaat qilib berilgan savolga hech qanday qo'llanmalar yordamisiz javob berishi orqali baholanadi.

Yuqorida keltirilgan tavsifdagi mutaxassisni tayyorlash uchun asosiy vazifalardan biri ta'lim jarayonini jadallashtirishdan iborat.

Ta'lim jarayonini jadallashtirish juda keng qamrovli vazifa bo'lib, u nafaqat pedagogdan yangi ta'lim texnologiyalarni qo'llashni talab qiladi, balki o'qitishni motivlashtirish va faollashtirishni ham ko'zda tutadi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda "motivlashtirish" tushunchasi jarayonni anglatadi. Uning natijasida biror faoliyat individ uchun ma'lum darajada shaxsiy ma'noga ega bo'ladi, qiziqishlari konkretlashadi va faoliyatning tashqaridan belgilangan maqsadlari shaxsning ichki ehtiyojlariga aylanadi. Ya'ni, shaxsda biror faoliyat uchun ehtiyoj, undash, havas, moyillik, intilish kabi qiziqtiruvchi omillar paydo bo'ladi.

An'anaviy pedagogikada o'qish motivlariga juda kam e'tibor berilgan. Lekin, rivojlangan mamlakatlarda o'qish motivlarining keng miqyosdagi nazariyasi yaratilganki, bu nazariyalarda pedagoglar uchun aniq tavsiyalar ham keltirilgan.

Faollik tarkibi quyidagi tashkil etuvchilardan iborat:

o'quv topshiriqlarini bajarishga tayyorlik;

mustaqil faoliyatga intilish;

topshiriqlarni ongli ravishda bajarish;

o'zining shaxsiy salohiyatini ko'tarishga intilish va xk.

Pedagogik amaliyotda faollashtirishning turli yo'llaridan foydalaniladi: o'qitish shakli, metodlari va vositalarining turli-tuman bo'lishi, ular ro'y beradigan vaziyatlarda tinglovchilarning mustaqil faoliyatini ta'minlaydigan birligini tanlash faollashtirishning asosiy yo'laridan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston sharoitida harbiy ta'lim tizimini isloh qilish mamlakat mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, vatanparvar va malakali harbiy kadrlarni tayyorlashning muhim omilidir.

Mazkur jarayonda ta'limning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslanishi, amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish hamda xalqaro ilg'or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois harbiy ta'limni izchil takomillashtirish O'zbekiston Qurolli Kuchlarining jangovar shayligi va professional salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Harbiy ta'lim va armiyani raqamlashtirish yangi bosqichga olib chiqiladi // 2026-yil, 07-may.
2. Sotvoldiyev A.Y. Chaqiriqqacha harbiy ta'limni tashkil etish va uning metodikasi. — Toshkent: Aloqachi, 2010. — 336 b.
3. Tavakkalov A.A. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nazariyasi. — Toshkent: TDPU, 2022. — 120 b.